



YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY "PADARKUSH" DRAMASINI O'RNI

Nyutonova X.L.

*Urganch RANCH texnologiya
Universiteti o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: jadid, dramaturgiya, istiqlol, xalq teatri, jamiyat, usuli jadid, ma'rifat, harakat, san'at, matbuot, o'zbek dramaturgiyasi, ma'rifatparvarlik, axloq.

Ключевые слова: джадид, драматургия, независимость, народный театр, общество, джад-идский метод, просветительство, движение, искусство, печать, узбекская драматургия, просветительство, этика.

Key words: jadid, dramaturgy, independence, folk theater, society, method of Jadid, enlighten-ment, movement, art, press, O'zbek dramaturgy, enlighten-ment, morality.

O'zbek adabiyotida uzoq davrlar mobaynida she'riyat yetakchilik qildi. Hatto xalq teatri asarlari yaratilib, tomoshabinlarda sahna san'atiga qiziqish paydo bo'lganidan keyin ham milliy teatrning maydonga kelishi XX asrning 10-yillariga qadar cho'zildi. Holbuki, Yevropa mamlakatlarida teatr san'ati allaqachon vujudga kelgan, xalqning madaniy-ma'rifiy darajasini belgilovchi omil bo'lgan bir paytda Turkistonda mazkur san'atning hali tug'ilmaganligi g'oyat achinarli hol edi. Shuning uchun ham Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy jiddiy ijodiy faoliyatini milliy teatr asarini yaratishdan boshladi.

O'z davrining eng ilg'or kishilaridan biri bo'lgan M.Behbudiy xorijiy safarlari vaqtida ham, Rossiyaning Moskva, Peterburg, Orenburg, Nijniy-Novgorod singari shaharlarida bo'lganida ham, "Tarjumon", "Turkiston viloyatining gazetisi" singari nashrlar orqali ham teatr san'atidan xabardor bo'lgan, desak yanglishmaymiz. Qolaversa, 1867 yili Samarqandda musiqali drama to'garagi, 1890 yili havaskorlar jamiyati tuzilgan va ular rus dramaturglari asarlarini sahnalashtirib, namoyish etishgan. Eng muhimi, 1911 yili, bir tomondan, ozarboyjon teatri, ikkinchi tomondan, tatar teatrlarining Turkistonga kelib, o'z spektakllarini ko'rsatishlari Turkistonning madaniy hayotida muhim voqea bo'lgan. Behbudiyning shu yili



“Padarkush” dramasi ni yozib tugallashiga ham, bizningcha, ana shu voqea turtki bergan.

Jadidchilik harakati va adabiyotini boshlab bergan kishining teatr, san’atning xalq ommasi-ga o’sha vaqtda eng katta ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan turiga e’tibor qaratmasligi mahol edi. O’zining tarix oldidagi missiyasini chuqur his qilgan adib 1911 yili birinchi o’zbek dramasi — “Pa-darkush”ni yozib, Turkistonda yangi adabiyot va san’at turiga tamal toshini qo’ydi.

Shuni ham unutmaslik lozimki, 1911 yili, Behbudiy asaridan bir oz avval, qo’qonlik muallim Abdurauf Samadovning “Mahramlar” piesasi risola shaklida nashr etilgan. Bu tarixiy fakt, ayrim ijodkorlar nazarida, Behbudiyni o’zbek dramaturgiyasi otasi, “Padarkush”ni esa birinchi o’zbek dramasi deyishimizga monelik qiladi. Lekin “Mahramlar”ning dastlab “O’liklar” nomi bilan tatar tilida yozilgani, muallifning o’zi ham tatar millatiga mansub bo’lgani, ayniqsa, mazkur asarning “Pa-darkush”dan keyin namoyish etilganini nazarda tutsak, Behbudiyning o’zbek teatr san’atiga, xususan, o’zbek dramaturgiyasiga asos solgan ijodkor ekanligi kundek ravshan bo’ladi. Qolaversa, “Mahramlar”ning sahnalashtirilishi Turkiston xalqlari madaniy hayotida “Padarkush” namoyishidek ulkan tarixiy voqea bo’lmagan.

Shu narsa e’tiborga sazovorki, Behbudiy o’z asarida ma’rifatsizlikning millat va millatning har bir a’zosi hayotiga ko’rsatajok fojiali oqibatlarini yaqqol tasvirlab bergan. Asarning “Padarkush yoxud O’qimagan bolaning holi” deb nomlanishi ham tasodifiy emas. “Padarkush” munosabati bilan yozilgan maqolalarning birida asarning hayotda ro’y bergan real hodisa ta’sirida yozilgani alohida qayd etilgan. Bu fikrning haqiqatga qanchalik mos yoki qanchalik zid ekanligidan qat’i nazar, XX asr boshlarida o’z farzandi tarbiyasiga e’tibor bermagan otalar ham, yoshlik yillari takasaltang, ishyoqmas, maishatparast boyvachchalar davrasida o’tgan bolalar ham oz bo’lmagan. Behbudiy “Pa-darkush»da faqat shunday otalar emac, balki shunday farzandlarning hayoti ham fojia bilan tugashi mumkinligini ko’rsatib, ularning har ikkalasini, va umuman, XX asr boshlaridagi o’zbek jamiyatini ogohlantirishga intilgan. Shu ogohlantiruvchi pafos, jadidchilikning tub mohiyatini ochuvchi ma’rifatparvarlik g’oyasi asarning katta ijtimoiy va ma’rifiy ahamiyatini belgilab beradi.

Muallif asar sarlavhasidan keyin qavs ichida uning janri va mavzusini “Turkiston maishatidan olingan ibratnoma” deb belgilagan; asarni kitobxonga “3 parda, 4 manzarali milliy birinchi fojia” si-fatida taqdim etgan. Drama ekspozitsiyasida bo’lib o’tgan Boy bilan Domullaning bu suhbatini har ikkala personaj mohiyatini ochibgina, ularning o’tgan asr boshlaridagi xalq ommasining qaysi qatlamiga mansubligini ko’rsatibgina qolmay, voqealarning keyingi rivoji

va hatto xotimasini ham, prujina singari, o‘zida siqib - ushlab turadi. Bu sahnadagi Domulla obrazida Behbudiy o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy va ma’rifiy qarashlarini ifodalashga uringan. U o‘zining ma’rifatparvarlik g‘oyalari shu obraz orqali tomoshabinga yetkazmoqchi bo‘lgan .

Bundan qariyb 100 yil avval yozilgan bu asardagi Domullaning xalqni ma’rifatga da’vat et-ishi, uning taqdiridan qayg‘urishi bilan bog‘liq motiv hamma zamonlar uchun ham ahamiyatlidir. Negaki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda yashab, yildan-yilga rivojlanib va tarmoqlanib borayotgan bilimlarni mukammal egallamasdan turib, buyuk kelajakni barpo etish mumkin emas. Shu ma’noda jadidlarning, jumladan, Behbudiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ma’rifiy va madaniy jarayon bilan uyg‘un bo‘lib yashamoqda.

“Padarkush” dramasi asosiy qahramonlaridan biri Toshmurod oxir-oqibat maishatparast sheriklari bilan kelib, otasi yashirgan pulni o‘g‘irlamoqchi bo‘ladi. Shu payt uning sheriklari qo‘lga tushmaslik uchun voqeadan ogoh bo‘lib qolgan otasiga daf’atan pichoq sanchadilar. Ham otasidan, ham otasining davlatidan ayrilgan Toshmurod qamoqqa olinadi. Behbudiyning fikriga ko‘ra, o‘qimagan bolani o‘tgan asr boshlarida taxminan shunday baxtsiz kelajak kutgan.

“Padarkush”ning matbuot va sahna yuzini ko‘rishi og‘ir kechdi. O‘sha yillari tashkil etilgan har bir gazeta chor hukumatining maxsus ruxsati berilgandan so‘nggina dunyo yuzini ko‘rganidek, bu asarning ham risola shaklida chop etilishi va sahnalashtirilishi uchun chor ma’murlaridan ruxsatnoma olish zarur edi. O‘zbek teatri tarixiga oid manbalarda aytilishicha, drama garchand 1911 yili yozilgan bo‘lsa-da, dramaturg asar ustida kimlarningdir fikr-mulohazalari asosida ishlab, uni 1912 yilning avgust oyida nashrga tayyorlagan. Asarning nashr etilishi oson ko‘chishi uchun muallif uni “Borodi-no jangi va Rusiyaning frantsuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubileyi”ga bag‘ishlagan. “Pa-darkush” shunday sa’y-harakatlar natijasida bo‘lsa kerak, Buxoroda chiqa boshlagan “Turon” gazetasining 1913 yil 1 va 3 yanvar sonlarida bosila boshlaydi. Ammo gazetaning yopilishi munosaba-ti bilan asarning so‘nggi qismlari chop etilmay qoladi. Nihoyat, Samarqanddagi Gazarov va Siyanov matbaasida nashr etiladi. Ammo hali na Toshkentda, na Samarqandda milliy teatr truppasining shakllanmaganligi tufayli asarni sahnalashtirish ishlari ancha cho‘zildi. Nihoyat, 1914 yil 15 yanvar kuni Samarqandda, o‘sha yilning 16 fevral kuni esa, Toshkentda - Kolizey teatri birinchi o‘zbek dramasi sahna yuzini ko‘rib, xalq va mamlakat hayotida unutilmas voqea bo‘ldi. Behbudiy tomosha-binlarning milliy spektaklga bo‘lgan favqulodda katta qiziqishidan ma’rifiy ishlarni rivojlantirish maqsadida foydalanmoqchi bo‘ldi. Asarning 7 may kuni bo‘lib o‘tgan ikkinchi



namoyishida, “Oyna” jurnalining xabar berishicha, biletlar sotilishidan 384 so‘m 50 tiyin yig‘ilib, shundan 184 so‘m 50 tiyin spektaklga sarflangan xarajatga ketgan. Qolgan 200 so‘mdan 110 so‘mi maktab islohiga, 35 so‘mi Jomboydagi Bozoramin Hodixo‘ja ta‘sis etgan va muallim mulla Komil idorasidagi maktabga, 15 so‘mi Buxoriy qishlog‘idagi mulla Jo‘raboy maktabiga, 15 so‘mi “gorodskoy uchilishche”da tahsil olayotgan musulmon bolalarga, qolgan 35 so‘mi esa mulla Abduqodir Shakuriy maktabiga ajratilgan. Mutaxassislar Samarqanddagi birinchi spektaklga kim rejissyorlik qilganligi haqida turli fikrlarni bayon qilishgan. Ayrim olimlarning fikriga qaraganda, spektaklni Abdulla Avloniy sahnaga qo‘ygan. Lekin toshkentlik Avloniyning 1914 yili Samarqandga borib, spektaklga rejissyorlik qilgani biror na yozma fakt, na xotira bilan tasdiqlanadi. Bizningcha, asar muallifning o‘zi tomonidan sahnalashtirilgani haqidagi fikr haqiqatga yaqin. Yana shu narsa e‘tiborga sazovorki, Samarqandda ham, Toshkentda ham spektakldagi barcha rollar mahalliy ma‘rifatparvar kishilar tomonidan ijro etildi. Bu, o‘zbek jadidlarining va, umuman, o‘zbek jadidchilik harakatining tantanavor kunlari edi. Ko‘p o‘tmay, “Padarkush” turli teatr truppalari ijrosida butun o‘lkani aylanib chiqdi. Bugungi tomoshabin va kitobxon uchun birinchi o‘zbek dramasi ibtidoiy asar bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin hali zamonaviy teatr san‘atidan yaxshi xabardor bo‘lmagan tomoshabinlar uchun “Padarkush”ning 1914 yildagi namoyishlari afsonavor voqea edi. O‘zbek madaniyati tarixida yangi san‘at – teatr san‘ati tug‘ilgan edi. Behbudiy va uning safdoshlari matbuot orqali bu yangi san‘atni keng targ‘ib qilishga kirishdilar. Behbudiy teatrga bag‘ishlangan maqolalar yozib, bu san‘atning ahamiyatini bun-day tushuntirdi: “Teyotr nimadur? Janobig‘a teyotr ibratnamodur, teyotr va‘zxonadur, teyotr ta‘zir adabidir. Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rub, kar-quloqsizlar eshitib asarlanur. Xulosa: teyotr va‘z va tanbih etuvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayon ko‘rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir”.

“Padarkush” ta‘sirida o‘tgan asrning 10-yillari o‘nlab sahna asarlari maydonga keldi, drama-turklar safi Nasrulla Qudratilla, Abdulla Qodiriy, Abdulla Badriy, Hoji Muin, Abdulla Avloniy hisobiga kengaydi. Ko‘p o‘tmay, ular safiga Hamza, Fitrat va Cho‘lpon singari zabardast dramatur-glar kelib qo‘shildilar.

Adabiyotlar:

1. Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy – Toshkent. 2010.
2. «Узбекистон адабиёти ва санъати», газета 1990 йил 19 январь.
3. Саидов Х. Маърифат либосидаги озодлик. – Б. 149. «Шарк» Нашриёт-матбаа концерни БОШ ТАХРИРИЯТИ Тошкент — 2000



4. Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar.Toshkent ma’naviyat 2006-yil
5.Н.Намозова. - Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 19.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada ma’rifatparvar, jadidchi, publisist, adib, pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilm yo‘lida qilingan ishlari, matonati, jasorati, mehnatlari, turli shaharlardagi safarlari, teatrga asos solinganligi, “Padarkush” drammasi, yangi usul maktablari, yangi tartibdagi darsliklari, pedagog sifatida xalq bolalarini bilimli qilish yo‘lidagi harakatlari, mashaqqatlari, ta’limiy-tarbiyaviy pedagogik g‘oyalari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются произведения просветителя, просветителя, борца, публициста, писателя, педагога Махмудходжи Бехбуди его упорство, мужество, трудолюбие, его путешествия по разным городам, основание тетра, драма “Падаркуш”,новый метод школы, новые учебники в порядке, его действия и усилия как педагога по воспитанию детей народа, воспитательные и воспитательно-педагогические идеи.

SUMMARY

In this article, the enlightener, fighter, publicist, writer, pedagogue Mahmudhoja Behbudi’s works in the field of science, perseverance, courage, hard work, trips to different cities, founding of the theater, “Padarkush” drama, new method schools, new order textbooks, as a pedagogue, his actions, efforts, educational and educational pedagogical ideas in the way of educating people’s children are highlighted.